



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Rabbanaqulov X.<sup>1</sup>, Bozorova Mujgona<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Sh.Rashidov nomidagi SamDU O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

<sup>2</sup> Talabasi, Sh.Rashidov nomidagi SamDU, IV kurs

## VATAN RAMZLARI MUQADDAS

### Annotatsiya

Maqolada ozodligimiz va huquqlarimiz kafolati bo'lgan Konstitutsiya hamda davlatimiz ramzlarining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish, ularni yosh avlod ongi, shuuriga singdirish har bir pedagogning burchi ekanligi, mustaqillik sharofati bilan qabul qilingan davlatimiz ramzlari milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi bilan birgalikda o'zbek xalqining azaliy an'analari, udumlari, tili, dili va ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ulari yosh avlod ongi va qalbiga singdirilishi lozimligi haqida so'z yuritilgan.

Xulosa qismida qabul qilingan milliy davlat ramzlari katta tarixiy voqea ekanligi, ular mustaqil davlatimizning birinchi timsollari bo'lib, bu kelajagimiz uchun munosib xizmat qilishi bayon qilingan.

**Kalit so'z va iboralar:** Istiqlol, konstitutsiya, demokratiya, modda, o'zlikni anglash, mustaqillik, sharofat, davlat ramzlari, milliy istiqlol, g'oya, xalq, azaliy an'analari, udum, dil, kelajak, ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat.

**Kirish.** Ozodligimiz va huquqlarimiz kafolati bo'lgan Konstitutsiya hamda davlatimiz ramzlarining mazmun-mohiyatini chuqur tushunish, ularni yosh avlod ongi shuuriga singdirish har bir pedagogning burchi hisoblanadi. Shu ma'noda bu jarayon va burch tuyg'usini bugun barcha ziyolilardan jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar, yaratilayotgan imkoniyatlardan ko'zda tutilgan maqsadlarda to'g'ri foydalanilsa, kelgusida mamlakat rivojiga rivoj qo'shilishi muqarrar.



Istiqlol tufayli shaxdam qadamlar bilan ilgarilab borayotgan Ona Vatanimizning kuch-qudrati, boyligi, uning yorqin kelajagi bo'lgan ardoqli farzandlarini odobli va olijanob inson qilib tarbiyalash oldimizga qo'yilgan buyuk vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda davlat timsollari katta ahamiyatga egadir.

Shu munosabat bilan Vatanimiz taraqqiyotining barcha jabhalarida katta o'zgarishlar, islohatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ammo ma'naviy islohatlar -qullik va mute'lik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish - bundan og'irroq va sharafliroq vazifa bo'lmasa kerak?!

Mustaqillik sharofati bilan qabul qilingan davlatimiz ramzlari milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi bilan birgalikda o'zbek xalqining azaliy an'analari, udumlari, tili, dili va ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ulari yosh avlod ongi va qalbiga singdirilishi lozim.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni hayotga tadbiiq etish, yosh avlodni tarbiyalash, ularda jamiyatimizning faol bunyodkorlariga xos fazilatlamini

shakllantirishga da'vat etadigan umumiy o'rta ta'lim maktablari, aniqroq aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflar muhim rol kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Yosh avlodni o'z vataniga muhabbat ruhida tarbiyalash, xalqi va Prezidentiga sadoqatli, komil inson bo'lib yetishishida boshlang'ich sinflarda davlat ramzlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi va tarbiyachilardan o'z ish uslublarini doimiy ravishda yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitib borish va ularni takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash vositalarining yangi shakl, usul va yo'llarini izlab topish, ya'ni ijodiy mehnat qilishni talab qiladi.

Mazkur tadqiqot ishi boshlang'ich sinf o'quvchilarini davlat ramzlari asosida o'z vataniga sadoqatli, qo'rqmas, mard yigit-qizlar bo'lib yetishishiga bag'ishlangan ilmiy ishlardan biri bo'lib, shu kunning dolzarb muammolariga bag'shlanganligi ushbu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

«Vatan timsollari» atamasi eski tuzum davrida O'zbekistonimizda ishlatilmas darajadagi bir birikmaga aylanib qolgan edi. Bugun esa u jonajon xalqimiz, tilimiz, ona zaminimiz, boyliklarimiz, Konstitutsiyamiz, Prezidentimiz, ylug' ajdodlarimiz va hokazolarni anglatadi. Ammo bu tushunchani «davlat ramzlari» tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Davlat ramzlari uchta - *bayroq, gerb va madhiya*. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasida bu aniq qilib belgilab qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega».

XX asrning 80-yillari o'rtalaridan erkinlik va demokratiya shabadalari esib, xalqda o'zlikni anglash qayta kurtak otdi. 1989-yil yozidan e'tiboran o'zlikni anglash jarayoni yanada kuchayib, jadallashib ketdi. Bu yangi davlatchiligimiz tarixiga oid tadqiqotlarda birmuncha yaxshi yoritilgan. Shularga qo'shimcha tariqasida aynan madhiyaga munosabat masalasini ham misol qilib keltirish mumkin.

1990-yil. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining birinchi sessiyasi tegishli qumitaga O'zbekiston Davlat madhiyasining yangi matnini va musiqasini tayyorlash ishlarini topshirdi. Qo'mitalar tanlov e'lon qildi. Besh oy davomida yopiq imzolar bilan 60 dan ortiq she'riy matn kelib tushdi. Biroq tanlov muhokamasi oxiriga yetib-yetmay,

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishdi. Endi qaytadan - rasman mustaqil O'zbekistonning davlat madhiyasini yaratish masalasi ko'rila boshladi. Yangi tanlov e'lon qilindi.

Shu tariqa 1990-yildan 1992-yilning dekabriga qadar o'tgan davr madhiya matni va musiqasini tanlash jarayoni bo'ldi. Bu davr mobaynida 60 dan ortiq she'r matni va 30 ga yaqin madhiya musiqasi tanlovga kiritildi. Biroq she'r va musiqa faqat birga ijro etilgandagina madhiya bo'lishini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qoshida maxsus ishchi guruhi tuzildi. Ishchi guruhi uch asarni Oliy Kengash muhokamasiga tavsiya etdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil dekabrda bo'lib o'tgan navbatdagi sessiyasida Abdulla Oripov va Mutal Burxonov hamkorligida yaratilgan variant qabul qilindi.

Madhiya - alohida janr, uning o'z badiiy va siyosiy-ijtimoiy talablari bo'ladi. Abdulla Oripovning Mutal Burxonov musiqasi asosida yozgan she'ri har jixatdan shu talablarga javob beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Davlat madhiyasi sifatida qabul qilingan matn har jihatdan - kuy-ohangi, jarang-sadosi, mazmun-mohiyati, ijtimoiy-siyosiy zalvori tarafidan ham kuchli.

Shularni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari haqidagi ayrim qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik tug'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish xaqida»gi qonunini qabul qilishga ehtiyoj tug'ildi. 2010-yilning 24-dekabrda shu qonun imzolandi, ertasiga matbuotda e'lon qilindi va kuchga kiritildi. Bu qonun besh moddadan iborat.

Uning 3-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bayon etiladi. 4-moddada ushbu qonun qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar kiritish belgilangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirildi:

#### **Davlat madhiyasining qayerlarda ijro etilishiga aniqliklar kiritish.**

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunining uni ijro etish mumkin bo'lgan holatlar ro'yxati berilgan 3-moddasi oldingi holati bor-yug'i 4 banddan iborat edi. Tahlil etilayotgan qonunda bu moddaning 11 banddan iborat yangi tahriri kiritildi. Davlat madhiyasi ijro etiladigan holatlarning hamma uchun ahamiyatli jihati borligini hisobga olib, ana shu yangi tahrirdagi matnni to'liq keltirishni lozim topdik:

3-modda.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish chog'ida - u qasamyod qabul qilganidan so'ng;



- 2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sessi-yalarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlislarining ochilishi hamda yopilishi chog'ida;
- 3) O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan umummilliy bayramlarga bag'ishlangan tantanali yig'ilishlar va majlislarining ochilishi chog'ida;
- 4) davlat televideniye va radio-eshittirish kompaniyalari tomonidan har kuni - ko'rsatuv va eshittirishlar boshlanishidan avval va tugaganidan so'ng, ko'rsatuv va eshittirishlar kecha-yu kunduz olib borilganida esa ertalab soat 6.00. da va tunda soat 24.00. da, yangi yil kechasida - soat 24.00. da;
- 5) respublika hayotidagi muhim tarixiy voqealarni nishonlash yuzasidan, atoqli siyosiy, davlat, harbiy arboblar, xalq qahramonlari, fan, adabiyot va san'at arboblari sharafiga o'rnatilgan haykallar, shuningdek, monumentlar, yodgorliklar va boshqa inshootlarning ochilishi chog'ida;
- 6) davlat organlari, boshqa tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan ma-rosimlar va boshqa tantanali tadbirlar vaqtida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini ko'tarish chog'ida;
- 7) rasmiy safar bilan O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy davlatlarning davlat va hukumat boshliqlarini kutib olish va kuzatish chog'ida - tegishli xorijiy davlatning davlat madhiyasi ijro qilib bo'linganidan keyin;
- 8) harbiy marosimlarni o'tkazish vaqtida - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy ustavlariga muvofiq;
- 9) umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida - yangi o'quv yili boshlanishi va o'quv yili tugashi marosimlari chog'ida;
- 10) sport maydonlarida-O'zbekiston Respublikasi chempionatlarini, milliy terma komandalar ishtirokida xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish vaqtida hamda xalqaro sport musobaqalarining O'zbekiston Respublikasi sport terma komandalarining vakillari bo'lgan g'oliblarini mukofotlash marosimlarini o'tkazish vaqtida ijro etiladi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasi ham quyidagicha tahrir qilindi:

«O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi unga nisbatan lozim darajadagi hurmat ta'minlangan holda umummilliy bayramlar va tantanali tadbirlar vaqtida ijro etilishi mumkin».

**Butunlay yangi qoidani joriy etish.** «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunning 7-moddasi oldingi holatida juda mavhum tartib bayon etilgan edi: **«O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko'pchilik huzurida ijro etilgan taqdirda hozir bo'lgan kishilar madhiyani tik turib, erkaklar bosh kiyimini olgan holda yoki qo'lini chekkasiga qo'yib tinglaydilar».**

Hayotning o'zi bu moddadagi tartib-qoidalarni tubdan o'zgartirish, ya'ni yangilashni talab qilayotgan edi. Shu tariqa mazkur qonunning 7-moddasi quyidagi tahrirda bayon etildi:

«O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko'pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hozir bo'lgan kishilar madhiyani

tik turib va o'ng qo'l kaftini ko'krakning chap tomoniga qo'yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagi shaxslar esa qo'lini bosh kiyimiga qo'yib tinglaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining ijro etilishi O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ko'tarilishi bilan birgalikda amalga oshirilsa, hozir bo'lgan kishilar unga yuzi bilan buriladi».

**Ifodalarni tahrir qilish orqali aniqlashtirish.** «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasi oldingi holatida mavjud *«madhiya»* degan so'z *«O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi»* degan so'zlar bilan almashtirildi.

Til - har doim taraqqiyotda, o'zgarishda bo'lib turadigdn vosita. Tushunchalar ham, qarashlar ham, atamalar ham o'zgarib boraveradi. Ilgari *«o'quv yurti»* derdik. Bu ruscha *«uchebnoye zavedeniye»ning* o'ta sun'iy, xunuk bir tarjimasini, aniqrog'i, kalkasi edi. Til ravnaq topib borgani sari bu atamani *«ta'lim muassasasi»* deyish rasm bo'ldi. Ana shu 8- hamda 11-moddalaridagi *«o'quv yurtlarida»* degan so'zlar *«ta'lim muassasalarida»* degan so'zlar bilan almashtirildi.

**Qonun ijrosini ta'minlash ustidan nazorat tartibiga o'zgartirish kiritish.** «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunning 12-moddasi oldingi holatida *«ushbu qonunning aniq bajarilishini kuzatib borish davlat idoralarining, korxonalar, muassasalar va jamoat birlashmalarining rahbarlari zimmasiga, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ko'tarish vaqtida ijro etiladigan hollarda esa O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi Qonunning aniq bajarilishini kuzatib borishi shart bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslar zimmasiga ham»* yuklatilgan edi. Endilikda esa bu band juda ixcham shaklda ifodalanib, *«ushbu qonunning ijrosini ta'minlash tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatildi, ushbu qonunning ijro etilishi ustidan nazorat esa ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi»*gan bo'ldi.

**Qonunni tamoman yangi modda bilan to'ldirish.** «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonun quyidagi mazmunga ega yangi - 13-modda bilan to'ldirildi:

*«O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini hurmat qilishi shart».*

*O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi».*

«O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari haqidagi ayrim qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish xaqida»gi qonuni 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga quyidagi qo'shimchalar kiritildi:

«1) quyidagi mazmundagi 203<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**«203<sup>1</sup>-modda.** Davlat ramzlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish

O'zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat bayrog'i, Davlat gerbi yohud Davlat madhiyasi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish - fuqarolarga eng kam ish xaqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - fuqarolarga eng kam ish xaqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi»;

**2) 245-moddaning birinchi qismi «203» raqamidan so'ng «203» raqami bilan to'ldirilsin».**

**Xulosa va takliflar.** Xullas, shu Vatanning farzandi bo'lgan har bir fuqaro bebaho ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarimiz hisoblanmish Davlat ramzlarini bilishi, hurmat qilishi, ular haqidagi qonunlar va ularga kiritilayotgan oxirgi o'zgartirish va qo'shimchalardan o'z vaqtida boxabar bo'lishi shart.

Chunki Davlat madhiyasi - muqaddas.

Yosh avlod bizning kelajagimiz ekan, demak porloq va yorqin kelajakning kalitini ular qo'lga topshirar ekanmiz, bu kalit ishonchli qo'llarda ekaniga, ular ota-onalarning bosib o'tgan shonli va sharafli yo'llarini davom ettirishlariga ishonishimiz kerak.

Yosh avlodni o'z vataniga muhabbat ruhida tarbiyalash, xalqi va Prezidentiga sadoqatli, komil inson bo'lib yetishishida boshlang'ich sinflarda davlat ramzlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi va tarbiyachilardan o'z ish uslublarini doimiy ravishda yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitib borish va ularni takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash vositalarining yangi shakl, usul va yo'llarini izlab topish, ya'ni ijodiy mehnat qilishni talab qiladi.

O'z Vatani uchun jonini fido qiluvchi, turli mehnat jabhalarida o'rnak ko'rsatib, mehnat qiluvchi, o'z xalqi, vatanining shon-shuhratini oshirish uchun oqil, faol, har taraflama namuna bo'luvchi yoshlarni tarbiya qilishda mazkur malakaviy bitiruv ishi qay ma'noda yorituvchi mayoq bo'lishi uchun yozilganligini ta'kidlamoqchimiz. Shunday insonlar oddiy bo'lib, ular zamondosh va vatandoshlarimiz paxtakor, bog'bon, o'qituvchi, shifokor, muhandis, quruvchi, to'quvchi, haydovchi va hakozi insonlardir. Ularning har bir kuni ezgulik, mardlik va olijanoblik, mehr-muhabbat, chinakam baynalminal, do'stlik, saxiylik va mehribonlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgandir.

Iste'dodli yozuvchi Mirkamol Ismoilning "Odamiylik qissasi" to'plami-dan olingan mana bu parchada to'g'ri yurgan inson baxtga erishishi, oyog'ini bilib bosmagan, yaxshi odob-axloq ko'chasidan toygan kishi bir kun borib nadomat chekib, armonda qolishi yorqin ifoda etilgan.

“Yomon bo'lsang ketar baxting qo'lingdan,  
Adashma hech to'g'ri yurgan yo'lingdan!  
Yomon xulqning oqibati ko'p yomon,  
Jazo tortgung axir bir kun beomon!  
Yaxshi bo'lsang – taxtu baxting qo'lingda,  
Turfa gullar ungay o'ngu-so'lingda!

Aql emish – inson ongin quyoshi,  
Shu uchun munavvar oqillar boshi!  
Qilar ishni bilib qilding – shodmonsan,  
Bilmay qilding – o’taketgan nodonsan!” – deydi.

Qabul qilingan milliy davlat ramzlari katta tarixiy voqea. Ular mustaqil davlatimizning birinchi timsollari bo’lib, bu kelajagimiz uchun munosib xizmat qilajak.

### Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T.: «O’zbekiston» nashriyoti, 1992-y.
2. «Barkamol avlod orzusi». T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1999-y.
3. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 1,2,3 va 4-sinf, T.: «O’qituvchi» nashriyoti, 2013-y.
4. Jo’rayev A. «Tarbiyaviy darslarni o’tish». T.: «O’qituvchi» nashriyoti, 1914-y.
5. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni, Toshkent, 2020-y., 42 bet.
6. O’zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarining konsepsiyasi, Toshkent, 2002-y., 115-bet.
7. G’aybullayev N.R. «Barkamollik, mahsuldorlik taraqqiyot kaliti», Toshkent, 1915-y.
8. Salimov O. va boshqalar. «Yangi O’zbekistonning yetti zafarli yili», T.: «Sharq», 1999-y.
9. Olim Sultonmurod. Davlat ramzlari muqaddas. 2013-yil, 10-aprel 2-son.
10. «Boshlang’ich ta’lim» jurnali, 3-son, 2019-y., 6-8 betlar.
11. «Boshlang’ich ta’lim» jurnali, 2-son, 2020-y., 26-27 betlar.
12. «Boshlang’ich ta’lim» jurnali, 4-son, 2021-y., 14-15 betlar.
13. Shadiev, R., Shadiev, N., Fayziev, M., Halubitskaya, Y. Improving Student Learning Satisfaction in Lectures in English as a Medium of Instruction with Speech-Enabled Language Translation Application. Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics), 2020, 12555 LNCS, str. 576–581. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-63885-6\\_62](https://doi.org/10.1007/978-3-030-63885-6_62).
14. Shadiev, R., Shadiev, N., & Fayziev, M. (2018, August). Exploring influence of cultural constructs and social network on cross-cultural learning. In *International Conference on Innovative Technologies and Learning* (pp. 345–350). Cham, Switzerland: Springer. Retrieved from <https://edusummit2019.fse.ulaval.ca/sites/edusummit2019.fse.ulaval.ca/files/TWG11-ActionAgenda.pdf>
15. Shadiev, R., Hwang, W.-Y., Shadiev, N., Fayziev, M., Liu, T.-Y., Shen, L.: Smart watches for making EFL learning effective, healthy, and happy. In: Chang, M., et al. (eds.) *Challenges and Solutions in Smart Learning*. LNET, pp. 73–76. Springer, Singapore (2018). [https://doi.org/10.1007/978-981-10-8743-1\\_11](https://doi.org/10.1007/978-981-10-8743-1_11)
16. www.bilim.uz



17. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
18. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
19. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
20. [www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)